

## **NUTQ TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARDA SEZGI VA IDROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

*JDPU maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi*

*Suvankulova Shaxnoza Karimkulova qizi*

*JDPU maxsus pedagogika logopediya*

*yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*To'xtapo'latova Jasmina, Almatova Sug'diyonaxon*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Nutq kamchiligi bo'lgan bolalar idroki idrok sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarni ongda bevosita aks ettirish, Nutq buzilishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda sezgi, diqqat, xotiraning o'ziga xosligi buyicha ma'lumotlar yoritilgan.

**Nutq buzilishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.** Idrok qilishning fonematik buzilishi nutq nuqsoniga ega bolalarning hammasida kuzatiladi, bunda nutq-eshitish va nutq-harakat analizatorlari orasidagi bog'liqlik bo'lmasligi kuzatiladi. Ma'lumki, dizartriya va rinolaliyada uchraydigan nutq harakat analizatori funksiyasining buzilishi tovushlarni eshitish orqali idrok qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (G.F. Sergeyeva).

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda tovushlarni ajratishda qiyinchiliklar uchraydi, bu esa nutqning tovush tomonining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bular yana ikkilamchi nuqson sifatida tovushlarni talaffuz qilishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday bolalar nutqidagi kamchiliklar, artikulyatsiya apparatidagi kamchiliklar asosida tovush talaffuz qilishdagi o'zgarishlar, ko'pgina almashtirishlar, artikulyatsiya apparati o'z funksiyasini to'liq bajarmasligi natijasida fonematik qabul qilishiga birinchi o'rinda ta'sir qilib, uning shakllanishiga yo'l qo'ymaydi. Ba'zida nutq nuqsoniga ega bolalar ba'zi bir tovushlarni eshitib, ajratishlari mumkin, bu tovushlarni talaffuz etishda ham to'sqinliklar bo'lmaydi. Boshqa hollarda esa oson talaffuz etiladigan huddi shunday tovushlar talaffuzida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda ayrim xususiyatlar kuzatiladi. Ya'ni agar bolaning talaffuzida tovushlar qanchalik shakllangan bo'lsa, bola tovushlarni shunchalik idrok etadi va farqlaydi. Fonematik eshitishning shakllanishi bolalar nutqining hamma tomoniga ta'sir etadi, bolaning umumiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Y.M. Mastyukova ko'rish orqali idrok qilishni tekshirish natijasida nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktab o'quvchilarida bu funktsiya o'z normasida qoladi va ular obrazlarni yaxlitligicha idrok etadi va me'yordagi bolalardan farq qilmaydi, degan xulosaga keladi. Biroq nutq nuqsonlariga ega bolalarga berilgan vazifalar

murakkablashtirilganida qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar predmet obrazlarini belgiJangan sharoitlarda ancha qiyinchilik bilan idrok qiladilar: qarorni qabul qiJish vaqti cho'ziladi, bolalar o'z javoblariga ishonmay ikkilanadilar, predmet-hodisalarni tanishda xatoliklar kuzatiladi, axborot ortgani sari predmetning belgilarini ajratish ham qiyinlashadi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqi sog'lom bolalarnikidan ajralib turadi: ular idrok etish uchun osonroq, oddiy tushunchalarni tanlashadi. Ko'pchilik nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar geometrik shakllarni ko'rish jarayonida uning shakliga emas, rangiga ahamiyat beradilar. Kichik maktab yoshidagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning ko'rib idrok etishini tekshirish jarayonida dizartriya, alaliya kabi nutq kamchiliklarida idrokning quyidagi buzilishlari kuzatildi: optik, atrof-muhit, tasavvurlar, yuzaga tegishli bo'lgan belgilar, barmoqlar va artikulatsiya a'zolari harakati, taktil-harakat a'zolari yordam ida idrok etish (L.S. Svetkova, T.M. Pirsxalayshvili).

Atrof-muhitni optik idrok etishning buzilishi bosh miyasi organik jarohatlangan bolalarda ko'proq uchraydi. L.N. Bendingning amaliy kuzatishlari natijasida nutqida kamchiligi bor bolalarda kichik maktab yoshidagi bolalar faoliyatida, xususan rasm chizish, konstruksiyalar yasash, grammatikani o'rganish jarayonida sog'lom rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan bu faoliyatlarning sustligi kuzatildi. Optik-fazoviy gnozising buzilish darajasi idrokning boshqa jarayonlarini ayniqsa fazoviy tasavvurlarning yetishmasligiga bog'liq.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda optik atrof-muhitni idrok etish Jarayonining buzilgani, shuningdek, boshqa idrok jarayonlari to'liq emasligi natijasida atrof-muhitni tasavvur qilishning shakllanishida o'ziga xos jihatlar kuzatiladi.

Alalik bolalarda idrokning buzilganligi ayniqsa rasmlarni chizishda kuchli namoyon bo'ladi: rasm va tasvirlar detallar miqdorining kamligi, oddiyliqi, soddaligi, murakkab emasligi bilan ajralib turadi, shuningdek, optik atrof-muhitni idrok etishdagi buzilishlarning miqdori bilan xarakterlanadi.

Disleksik va disgrafik bolalarda atrof-muhitni idrok etishning buzilishi ayrim hollarda yozuv nuqsonlarida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, predmetlar orasidagi aloqalar, ular orasidagi faoliyat impressiv nutqning saqlanganligini bildiradi. Lekin ekspressiv nutqda, agar bolalar og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lsa, nutqiy muloqot vositalarini bu munosabatlarda noto'g'ri ifodalaydilar. Bu ularning nutqida semantik tartibning saqlanmaganligi bilan bog'liq.

Artikulatsion organlarni tekshirish jarayonida (Tara metodikasi bo'yicha) idrok buzilishi ushbu organlar harakatlanishi bilan bog'liq.

Bu hol ayniqsa dizartriya va motor alaliyada kuzatiladi. Taktil-harakat a'zolari orqali idrok etish xususiyatlari R.L.Ringel metodikasi yordamida tekshiriladi. bunda bolaga «sehrli quticha»ga Joylashtirilgan predmetlar orasidan kerakli predmetni

paypaslab aniqlash topshiriladi. Nutqida kamchiligi bor bolalarda, ayniqsa dizartriklar va alaliklarda mayda qo'l motorikasi yaxshi rivojlanmaganligi tufayli taktil-harakat orqali idrok etish xususiyati ham buzilgan bo'ladi. Nutqi buzilgan hamma bolalarda fonematik idrokning buzilishi, shubhasiz nutq-eshitish va nutq-harakat qilish analizatorlari faoliyatining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. G.F. Sergeyevaning fikricha, dizartriya va rinolaliyada nutq-harakat qilish funksiyalarining buzilishi fonematik idrok jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Bunda tovushlarni talaffuz qilishning buzilishi va idrokning buzilishi orasida to'g'ridan to'g'ri aloqa kuzatiladi. Agar nutqida kamchiligi bor maktabgacha yoshdagi bolalarda shu psixik funksiya o'z rivojlanish me'yoridan orqada qolgan bo'lsa, ularda predmetning yaxlit obrazini yetarlicha idrok etish shakllanmagan bo'ladi.

Idrok qilinayotgan predmetning dastlabki obrazi sezgilarning jami (yig'indisi)dan iborat bo'lmay, balki yaxlit, bir butun bo'ladi. Bu idrokning perseptiv tomonini tashkil qiladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda esa predmetni yaxlit idrok etish qobiliyati ham buzilgan bo'ladi. Ular predmetning ayrim belgilarini idrok etmaydilar (L.I. Belyakova, YF. Garkusha, O.N. Usanova, E.L. Figeredo). Bolalar savodini chiqarishda optik-fazoviy idrok rivojlangan bo'lishi kerak. Miyaning organik shikastlanishi optik-fazoviy idrokning buzilishiga sabab bo'ladi.

A.P. Voronovanning nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalarining tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bu toifadagi bolalarda harf idroki past rivojlangan bo'ladi: ular harflarni bir tekisda yoza olmaydilar, harflarni chaplashtirib yuboradilar, to'g'ri chiziqdan tepaga yoki pastga tushib ketadilar. Bosma harflarni yozishda ham xuddi shunday qiyinchiliklarga uchraydilar. Shu sababli nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar Savodni egallashda qiynaladilar. Ma'lum bo'lishicha, nutqi rivojlanmagan bolalar «o'ng tomon» va «chap tomon» tushunchalarini ajratib olishda qiynaladilar, shuning uchun o'z tana a'zolarining joylashish o'rnini odatda to'g'ri aniqlay olmaydilar.

Alalik bolalarda fazoviy buzilishlar, ayniqsa, odam suratini chizishda yaqqol ko'rinadi: tasvirlashning qashshoqligi bilan, detallar sonining kamligi va oddiyliigi, hamda o'ziga xos optik-fazoviy buzilishlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Biroq, nutqi buzilgan bolalarda fazoviy buzilishlarning o'rnini rasmda ifodalangan hissiy jo'shqinlik evaziga kompensatsiya qilinadi. Demak, idrok va nutq o'zaro chambarchas bog'liq. Har bir idrok nutqda ifodalanadi. Masalan, «bu kitob», «bu odam» va h.k.

Odamning idroki sezgi organlariga ta'sir ko'rsatayotgan biron narsaning oddiygina obrazi emas, balki odamning tajribasi zaminida anglab, tushunib oladigan obrazdir. Idrokning mazmuni asosan odam hosil qilgan tajribaning boyJigi. Unda tafakkur va xayolning nechog'li taraqqiy qilganligi bilan belgilanadi. Bunda nutq yetakchi o'rin egallaydi. Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarda esa idrokning barcha turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Shuning uchun ular bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishda nutq kamchiliklarini to'g'rilash bilan birga idrokni rivojlantirish ham talab qilinadi.

**Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda sezgi, diqqat, xotiraning o'ziga xosligi.**

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining o'ziga xosligi. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga aktiv qaratilishiga aytiladi. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun diqqat-e'tiborning o'zgaruvchanligi, ixtiyoriy diqqatning pastligi, o'z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar kabi bir qator xususiyatlar xosdir. Diqqat ta'sir etuvchi analizatorlarning (ko'rish yoki eshitish) ishtirokiga ko'ra farqlanadi: nutqida kamchiligi bor bolalarda diqqatni to'plash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Masalan, nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda rang, shakl, figuralarning fazoviy joylashishini farqlashda xatolar ko'p uchraydi. Bunday bolalar diqqatining tarqoqligi tufayli biron-bir ishni oxiriga yetkaza olmaydi. Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni nutq va amaliy harakat o'rtasida bo'lish amalda bajarib bo'lmaydigan qiyin vazifa hisoblanadi. Bolalar diqqatidagi kamchiliklar butun ish jarayoni davomida kuzatiladi. Ularda diqqatning ko'chishi, ya'ni bir narsadan ikkinchi boshqa narsaga, faoliyatning bir turidan boshqa turiga o'tishi qiyinchiliklar bilan kechadi. Buning sabablaridan biri ketma-ket qilinadigan ish mazmunlari o'rtasida bog'liqlikning borligi yoki yo'qligida. Agar bunday bog'liqlik bo'lsa, diqqat tez va oson ko'chadi. Diqqat ko'chishining yengillik yoki qiyinlik sabablaridan yana biri diqqat qaratilgan narsalarga va bajarilayotgan ishlarga nisbatan bolalarning munosabatlaridadir. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda diqqat ko'chishining qiyinligi ularning o'z nuqsonlariga nisbatan munosabatlari bilan ham belgilanadi, ba'zi bolalar o'z nuqsonlarini anglab, undan uyaladilar, ba'zilar nuqsonlariga parvo ham qilmaydilar va to'g'rilashga intilmaydilar. Mana shu omillar diqqatni to'plashga va nutq kamchiliklarini yengishga to'sqinlik qiladi. Motor alalik bolalar bilan o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Motor-alalik bolalarda ixtiyoriy diqqatning miqdor ko'rsatkichlari darajasi nutqi me'yorda rivojlangan bolalarga nisbatan ancha past;

- Motor-alalik bolalarda ixtiyoriy diqqatning xarakteri ko'rish va eshitish qo'zg'atuvchilarining ta'siriga bog'liq bo'ladi: bunda nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar uchun berilgan vazifalarni bajarishda so'z bilan ifodalangan og'zaki ko'rsatmalardan ko'ra ko'rish orqali berilgan ko'rsatmalarga o'z diqqatini jam lash osonroq kechadi;

- Motor-alalik bolalar uchun faoliyatning reproduktiv turi (normada – produktiv) ko'proq xos bo'ladi, ularda biron vazifani bajarishda mustaqil izlanish. Har xii variantlarni sinab ko'rish qobiliyati sust bo'ladi;

- O'yin faoliyatida esa motor alalik bolalar vazifani bajarishda normal bolalar bilan bir qatorda faoliyat ko'rsatishlari mumkin, bu ularning aynan o'yin sharoitida

ko'nikmalarni yuqoriroq darajada qo'llay olishlaridan, ya'ni faolroq faoliyat ko'rsata olishlaridan darak beradi, demak alalik bolalar faoliyatining sifati logoped ularning diqqatini qay darajada jamlay olishiga bog'liq;

- Motor-alalik bolalarda ixtiyoriy diqqat past darajada rivojlangan bo'ladi va bu ularda ruhiy jarayonlarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi yoki faoliyat tuzilishining buzilishiga olib keladi.

Bunda: a) yo'l-yo'riqlarni bolalar aniq emas, balki uzuq-yuluq idrok etadilar; ular berilayotgan vazifa shartlariga diqqatlarini jamlashga, uni bajarish usullari va vositalarini izlashga qiynaladilar; yo'l-yo'riqlarni aniqlashtirib olish maqsadida odatda nutqdan foydalanmaydilar;

b) motor alalik bolalar berilgan vazifalarni xatolar bilan bajaradilar, bunda xatolar xarakteri va vazifaning bajarilish vaqti me'yordagi bolalarnikidan sifat jihatdan ancha farq qiladi;

d) vazifalarni bajarishda barcha o'z-o'zini nazorat qilish turlari (oldingi, joriy va keyingi) shakllanmagan yoki ancha buzilgan bo'ladi (O.N. Usanova, Y.F. Garkusha, 1985-yil).

Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomidajadal bir narsaga qaratishga layoqatsizlikda, diqqatning osongina va tez-tez bo'linib turishida namoyon bo'lishi mumkin. Parishonxotirlikning bu ko'rinishi ko'pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq-atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, har qanday nutq buzilishlariga ega bo'lgan bolalarning ixtiyoriy diqqatini shakllantirish uchun uni faoliyat jarayonida muntazam va tizimli rivojlantirib borish kerak. Bunda diqqat buzilishining har bir nutq kamchiligidagi (alaliya, dizartriya, rinolaliya, duduqlanish va h.k.) o'ziga xos namoyon bo'lish xususiyatlari hisobga olinishi va bu ish boshqa oliy psixik funksiyalarning rivojlanishi bilan yaqin aloqada olib borilishi shart.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning xotirasi individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu jarayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va o'sha faoliyat bilan belgilanadi. Muayyan bir materialni esda olib qolish hayot faoliyati jarayonida individual tajriba orttirilishiga bog'liqdir. Esda olib qolingan narsani keyinchalik kechadigan faoliyatda qo'Hash uchun uni esga tushirish kerak. Ulug' muallim va shifokor Ibn Sino nutq va xotiraning o'zara bog'liqligiga e'tibor bergan va shunday degan edi: «Bolalar birga bo'lganda doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar».

Xotiraning bir necha turlari mavjud: ko'rgazmali-tasavvurli, so'zli-mavhum va oraliq. Bu turlar inson yuqori asab faoliyati Birinchi va ikkinchi signal tizimlarining

o'zara nisbatiga bog'liq bo'ladi. Xotira u yoki bu turining ustunligi, xususan, inson hayoti va faoliyatining turlari va shart-sharoitlariga bog'liq. Masalan: ko'rgazmali-tasavvurli xotira turi ko'pincha rassomlarda uchraydi. Ko'rgazmali-tasavvurli xotira turli xil taassurotlarni eslab qolishda qanday analizator unumdor bo'lishiga qarab farqlanadi. Shunga muvofiq harakatlantiruvchi, ko'rish va eshitish xotirasini farqlaydilar. Bu turlar alohida juda kam uchraydi. Ko'p hollarda aralash turini uchratish mumkin: ko'rish-harakatlantiruvchi, Ko'rish -eshitish, eshitish -harakatlantiruvchi.

Xotira hajrnining buzilishi bosh miya yarim sharining disfunktsiyasiga, taqdim etilgan ma'lumotlarni tiklash tartibidagi qiyinchiliklar esa-o'ng yarim sharning disfunktsiyasi bilan bog'liq.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar xotirasi bilan bog'liq muammolar bilan G.S. Gumennaya, M.I. Belyajova, YF. Garkusha, O.N. Usanova va boshqa olimlar shug'ullanganlar. Bunday bolalarning ko'rish xotirasi ko'lami deyarli me'yordagidan farqlanmaydi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda xotira funksiyalarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, ularning ko'rish xotirasi me'yordan hech qanday farq qilmas ekan.

Dizartrik bolalarda geometrik figuralarni eslab qolish ehtimoli juda kam. Bunday bolalarda bu sohadagi past natijalar idrokning buzilish shakllari, fazoviy tasavvurning bo'shligi bilan bog'liq (I.T. Vlasenko). Bu bilan birga eshitish xotirasi kamchiliklarining darajasi nutq rivojlanishining pasayishiga olib keladi. A.R. Luriya va boshqalarning <do ta so'z> metodikasi yordamida bolalar xotirasi tekshirilganda, nutqida og'ir buzilishlar bo'lgan bolalarda qator xususiyatlar aniqlandi: ular vazifalarni bajarish jarayonida sekinroq mo'ljal olishadi va ularning natijalari me'yordan pastroq bo'ladi. Motor alalik bolalar xuddi shu metodika asosida tekshirilganda, birinchi aytilgandan keyin (eshitib turib) faqatgina 3-4 ta so'zni qaytara olishi ma'lum bo'ldi, bunda ular bir so'zni bir necha marta qaytarishi mumkin yoki yangi so'zlar bilan almashtiradi. Nutqida kamchiligi bor bolalar yo'! qo'yilgan xatolarini e'tiborga olmaydilar va tuzatmaydilar. Hamma bolalarda xatolarni to'g'rilash bir xil past darajada bo'lar ekan. Ular 10 daqiqadan so'ng 5 ta so'zni, ertasi kuni – 1-3 ta so'zni eslaydilar. Motor alaliyali bolalar uchun o'nta so'zning o'rtadagi qismlarini eslash ayniqsa qiyin kechadi.

Motor alalik bolalarning nutqi me'yorda rivojlangan bolalar bilan solishtirilganda, eshitish xotirasi va eslab qolish unumdorligi motor alaliklarda ancha past ekani ma'lum bo'ldi. Motor alalik bolalar tez-tez murakkab yo'l-yo'riqlarni eslaridan ehiqarib qo'yadilar (uchta, to'rtta pog'onali), berilgan vazifalarning ketma-ketligini almashtiradilar va ba'zi belgilarni tushirib qoldiradilar. Bolalar yo'l-yo'riqni aniqlash maqsadida nutq muloqotiga tayanmaydilar (L.I. Belyakova, YF.Garkusha, O.N. Usanova, E.L.Figero, 1991). faoliyat tuzilishining buzilishi yo'l-yo'riqni noaniq va uzuqyuluq idrok qilish faqatgina eshitish xotirasining pasayishi bilan

emas, balki diqqat xususiyatlari bilan ham bog'liq. Qayta eslashdagi yo'lga qo'yilgan xatolarni nutq buzilishiga ega bolalar odatda sezmaydi va tuzatmaydi. Kechiktirilgan qayta eslash barcha nutq nuqsoniga ega bolalar toifasida bir xilda quyi (past) bo'lib chiqadi. Masalan: ular 10 daqiqadan keyin beshta so'zni, keyingi kunda bir-uchta so'zni qayta eslaydi. Shunday qilib, nutqida kamchiliklarga ega bolalarda quyidagi xotira xususiyatlari kuzatiladi: ko'rish xotirasi ko'lami deyarli

Me'yorga to'g'ri keladi, geometrik figuralarning esda qolishi bundan mustasno; eshitish xotirasining umumiy pasayishi; kechiktirilgan qayta tiklashning quyi darajasi; mazmunli, mantiqiy eslab qolishning nisbatan saqlanishi. Ammo bu turdagi bolalarda, mavjld qiyinchiliklarga qaramasdan fikrlash, mantiqiy eslab qolish imkoniyatlari nisbatan saqlangan bo'ladi. Xotirani o'rganish uslubiyati. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning xotirasini tekshirish uchun bir qancha metodikalar ishlab chiqilgan. Ular bolalarda qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira, mantiqiy va mexanik xotiraning rivojlanish darajasini

O'rganish uchun mo'ljallangan. Qisqa muddatli xotirani tekshirishda bolaga shunday ko'rsatma beriladi: «Men har bir qatorda Uchtadan (to'rttadan, beshtadan) son bo'lgan to'rt qator sonlarni o'qiyman. Sening vazifang – bu sonlarni o'qilgan tartibda eslab qolish, keyin bo'lsa xayolda birinchi sonni ikkinchisi, ikkinchisini

Uchinchi bilan, uchinchini to'rtinchi bilan va h.k. qo'shish va olingan to'rtta yig'indini kerakli qatorga yozishdan iborat. Metodikada qo'llanadigan qatorlardagi raqamlar va qatorlar soni bolaning yosh xususiyatlariga qarab tanlanadi. Qatorlarni o'qish orasidagi vaqt yoshga ko'ra 15-25 sekund bo'lishi kerak. Uzoq muddatli xotiraning rivojlanganlik darajasini o'rganish uchun mo'ljallangan metodikada bolaga shunday ko'rsatma beriladi:

«Hozir men bir qator so'zlarni o'qiyman, sen esa, ularni eslab qolishga harakat qil. Tayyorlan, diqqat bilan eshit: stol, sovun, odat, vilka, kitob, palto, bolta, daftar, sut, shim». So'zlar qatori bir necha bor o'qiladi. Tekshiruv 10 daqiqadan keyin va uch kun o'tib amalga oshiriladi.

Juftlikni eslab qol metodikasi mantiqiy va mexanik xotira rivojlanishi darajasini o'rganish uchun mo'ljallangan. Bunda bolalarga ikki qator so'z beriladi. Birinchi qatordagi so'zlar orasida ma'naviy bog'lanishlar mavjud. Ikkinchi qatorda esa bunday bog'lanish yo'q. Tadqiqotchi o'rganilayotgan qatordagi juft so'zlarni o'qiydi (juftliklar orasidagi vaqt – 5 soniya). 10 soniyalik tanaffusdan so'ng qatorning chap tomonidagi so'zlar o'qiladi, sinalayotgan bola esa eslab qolingan o'ng qatordagi so'zlarni yozadi. Bolalar xotirasi psixologik jihatdan diagnostika qilinganda, uning eng muhim xususiyatlaridan biri so'z, mantiq, xotirasi va ma'nosiga qarab tushunish, eslab qolish salmog'ining ortishi alohida ko'rsatilgan. Logopedik mashg'ulotlarda nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning o'z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish va esga tushirish jarayonlarini muvofiqlashtirishga erishish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mamedov K.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari (psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida). Doktorlik dissertatsiya, 1994-yil.
2. Mamedov K.Q, Shoumarov G'.B, Podobed Y.L. Ruhiy "Rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida." – Toshkent, 1992-yil.
3. Mamedov K.Q, Soatov M.L, Po'latova P.M. "Oligofrenopedagogika asoslari." Pedagogika Institutlari Defektologiya fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma." – Toshkent, O'qituvchi, 1994-yil.
4. Mavlyanova R., Turayeva O., Xolikberdiyev K. "Pedagogika." – Toshkent, O'qituvchi, 2001-yil.
5. L.R. Mo'minova. "Logopediya." – Toshkent, 2006-yil.
6. L.R. Mo'minova, M. Ayupova. "Logopediya." – Toshkent, 1993-yil.
7. L.R. Mo'minova. "Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi." – Toshkent, 2012-yil.
8. L.R. Mo'minova, D. Nazarova. "Maxsus ta'lim atamalarining lug'ati. – Toshkent, 2010-yil.
9. Z. Nishanova, G. Alimova. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi." – Toshkent, 2005-yil.
10. S. Nishonova. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent, Istiqlol, 2003-yil.
11. Рубинштейн С. И. «Психология умственно отсталого школьника» - Москва, 1970-год, 1979-год, 1986-год.